XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-aprel VI-56-55-3-48-K/24 Zomin tumani

Zomin tumani 2024-yil 1-chorak ijrosi taxliliga asosan, 2024-yil mahalliy budjetining xarajatlar qismiga tasdiqlangan parametrlari doirasida o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini o‘z vaqtida va to‘lig‘icha moliyalashtirilishini ta’minlash, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan tuman mahalliy budjetiga kiritilayotgan o‘zgartirishlarni ijrosini ta’minlash, budjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarning homiladorlik ta’tili va tug‘ish nafaqalarini to‘lash, budjet tashkilotlarida kreditor qarzdorliklarning vujudga kelishining oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27, 148-moddalariga, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29 dekabrdagi “Zomin tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-53-133-3-48-K/23- son qarori bilan tasdiqlangan mahalliy budjetining 2024-yil uchun xarajatlar qismiga ilovaga asosan o‘zgartirish kiritilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov)ga mahalliy budjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Budjet tashkilotlari raxbarlariga aniqlik kiritilgan o‘zgartirishlarni o‘z vaqtida va ajratilayotgan mablag‘dan maqsadli foydalinish vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Ergashev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ABDUGANIYEV ALISHER MUXAMMADIYEVICH

Xalq deputatlari Zomin tumani Kengashining
2024-yil 26-apreldagi
VI-56-55-3-48-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Bulim	Kichik bo‘lim	Bob	Xarajat			Summa (mln. so‘mda)	Shu jumladan oylar buyicha (mln. so‘mda)								
			Toifa	Modda	Element		Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr
7065	200	84	42	52	110	1230		130	98			930			72
7065	200	84	42	52	500	80						80			
7073	101	54	43	54	920	800			270	300		230			
7082	310	56	42	52	110	100		100							
7083	610	205	42	52	110	117			117						
7091	100	72	43	54	910	-230		-230							
7091	100	72	42	52	110	-1030				-300		-730			
7092	100	72	42	52	110	-915			-485			-430			
7096	300	72	42	52	110	-80						-80			
7096	300	72	48	21	190	-72									-72

XAMMASI	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**